

'DVCVINVESTITSİYALARNING IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Ibragimova Ayjamal

Kadirova Ayjamal

Qoraqalpog' davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada investitsiya faoliyatining iqtisodiy mazmun mohiyati, uning barqaror iqtisodiy yuksalishni ta'minlashda muhim omil sifatida ahamiyati va faol investitsiya siyosatini yurgizishda davlat boshqaruvi, shuningdek O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion jarayonlar va Qoraqalpog'iston Respublikasida yillar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar to'g'risida malumotlar keltirilgan*

Kalit so'zlar: *Investitsiya, investitsion faoliyat, investitsiya jarayoni, investitsion faollik, investitsiya siyosati.*

Hozirda O'zbekiston iqtisodiyotining barcha sohalarida o'zgarishlar, tarkibiy islohotlar olib borilmoqda. Bunday islohotlarning olib borilishi bevosita mamlakatdagi investitsiya jarayoni, davlatning investitsiya siyosati, uning ustuvor yo'nalishlari va mamlakatdagi korxonalar investitsiyaviy faolligiga bog'liq. Mustaqillikning qisqa davrida investitsiyaviy faollikni ta'minlash, uni kuchaytirish borasida qator amaliy chora-tadbirlar o'tkazildi, investitsiya faoliyatini tartibga solib turuvchi qator qonun va qonun osti hujjatlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq qilinmoqda.

«Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so'zidan kelib chiqqan bo'lib «qo'yish», «mablag`ni safarbar etish», «capital qo'yilmasi» ma'nosini beradi. Keng ma'noda investitsiya mablag`ni ko'paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Ko'pgina hollarda «investitsiya» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta'riflanadi. Investitsiya deganda barcha turdagi milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki birorbir ijobiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning keying bosqichlarida mamlakatning investitsion salohiyatini oshirish va iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish hajmini oshirish masalalariga keng e'tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70

milliarddollar xorijiy investisiyalarni jalb etish choralari ko'rish" vazifasi belgilab berildi.[1]

Prezident Shavkat Mirziyoev Toshkent xalqaro investisiya forumida so'zlagan nutqlarida iqtisodiyotni isloh qilishda mamlakatimizda investisiyalarkiritilishi borasida oxirgi yillarda erishilgan natijalar haqida aytib o'tdilar, jumladan, oxirgi 5 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan yillik xorijiyinvestisiyalar hajmi uch yarim barobarga oshib, ularning umumiy qiymati 25 milliard dollarni tashkil etgan. Buning hisobiga 59 mingta investisiya loyihasi amalga oshirilishi natijasida 2,5 milliarddan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilishiga munosib hissa qo'shgan.[2]

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga keyingi yillarda jalb etiladigan investisiyalar hajmini tahlil qiladigan bo'lsak, 2020 yilda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 202,0 trln. so'm o'zlashtirildi. Dollarekvivalentida 20,1 mlrd. AQSh doll. o'zlashtirilgan bo'lib, 2019 yilga nisbatan 91,8% ni tashkil etdi. O'zbekistonda 2020 yilda investision faollikning pasayishi kuzatildi, 2019yilga nisbatan asosiy kapitalga investisiyalarning o'sish sur'ati 91,8 % ni tashkil etdi. 2020 yilda 202,0 trln.so'm asosiy kapitalga investisiyalar o'zlashtirildi,ulardan 65,4 % i yoki 132,0 trln. so'm jalb qilingan mablag'lar hisobidan, qolgan 34,6% i yoki 70,0 trln. so'm, korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi. Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 39310,2 mlrd. so'm yoki jami investisiyalar hajmining 19,5 % i va 2019 yilga nisbatan 8,0 % ga kam asosiy kapitalga investisiyalar o'zlashtirildi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 162689,9 mlrd. so'm yoki jami hajmdan 80,5 % investisiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019 yilga nisbatan 8,0 % ga ko'paydi. 2020 yilda korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan 51911,3 mlrd. so'm asosiy kapitalga investisiya o'zlashtirilgan bo'lib, jami investisiyalarni 25,7 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan esa 18077,8 mlrd. so'm yoki 8,9 % o'zlashtirildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hisobidan 28740,5 mlrd. so'm o'zlashtirilib, 2019 yilga nisbatan 5,3 % punktga kamayib, jami investisiyalarning 14,2 % ini tashkil etdi.[3]

Davlat investitsiya siyosati hududlar, tarmoq va korxonalar investitsiya siyosatidan tarkib topib, ular o'zaro bag'liqdir. Hududlar investitsiya siyosati investitsiyani sarflashda aholi, hudud va investor manfa'larini hisobga olgan holda samarali ishlatishga imkon beruvchi hududda olib boriladiga chora-tadbirlar majmuyi. Tarmoq investitsiya siyosati esa bu mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi tarmoqlar, sanoat mahsulotlarini eksport qilish, import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, ilmiy-texnika taraqqiyotini investitsiya yo'li bilan qo'llabquvvatlash hisoblanadi


Quyida Qoraqalpog'iston Respublikasi yillar kesimida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni ko'rib chiqamiz. (1-jadval)

1-jadval

**Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar[4]
(mlrd so'm)**

Hududlar	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
O'zbekiston Respublikasi	51232,	72155,	124231,	195927,	210195,1	239552,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3778,3	2822,0	6757,8	8750,6	7089,8	8110,7

O'zbekiston Respublikasida 2016 yil 51232,0 mlrd so'm asosiy kapitalga investitsiya o'zlashtirilgan bo'lsa Qoraqalpog'iston Respublikasida 3778,3 milliard so'm investitsiya o'zlashtirilgan. Bu jami respublikada o'zlashtirilgan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyaning 7,4% in tashkil etadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiya 2017 yil 2822,0 mlrd so'm, 2018 yil 6757,8 mlrd so'm asosiy kapitalga o'zlashtirilgan.



1-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar dinamikasi

Yuqorida 1- rasm ma'lumotlaridan ko'rib turganingizdek, 2019 yilga kelib yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, o'zlashtirilgan investitsiya 8750,6 miliard so'mni tashkil etgan. 2020 yil 1089,8 milliard so'mni tashkil etgan, 2021 yil 8110,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 1020,9 mlrd so'mga ko'payish kuzatilgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo'lib

xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatisiz tasavvuz etib bo'lmaydi. Investitsiya loyihalarini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmush darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Yani maishiy muhtojliklarning katta bo'limi qanoatlantiriladi, ishlab chiqarish kengayadi, yangi mehnat kuchlari shakillanadi, eski va og'ir mehnat turmushidan yangi, yengil va samarali mehnat faoliyatiga o'tiladi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugingi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Тошкент халқаро инвестиция форумида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи 2022 йил 25 март.
3. Аймухаммедова Амина Какажановна. ИНВЕСТИЦИЯ САЛОҲИЯТИ ВА ИҚТИСОДИЁТДА УНДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎЛЛАРИ. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2022 mart-aprel. №00058 77-б.
4. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>